

Har kim o'z oldidan yeydi



16:01 / 01.02.2019 3652

Aziz bolajonlar, albatta, siz ovqatlanish odoblarini yaxshi bilsangiz kerak. Ularga rioya qilish, boshqalarga ham o'rgatish zarur ekanini ham unutmang. Eng asosiysi, bunday odob turlarini bizga Payg'ambarimiz alayhissalom o'rgatganini esda saqlang. Ularga asoslanib yashash savob ekanini doimo yodda tuting.

Keling, ana shunday islomiy odoblardan birini o'rganamiz. Uni bizga Umar ibn Abu Salama roziyallohu anhu aytib beradilar. U kishi sizlar kabi bolalik paytlarida Rasululloh alayhissalom dasturxon madaniyatini o'rgatgan ekanlar:

«Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning qaramog'idagi bola edim. Qo'lim tovoqda borib-kelar edi. Shunda u zot menga: «**Ey g'ulom! «Bismillah», degin, o'ng qo'ling bilan yegin, o'z oldingdan yegin!**» dedilar. Shundan so'ng yeyishim shunday bo'ldi».

Buxoriy, Muslim, Abu Dovud, Termiziy rivoyat qilganlar.

Demak, taom lagan kabi idishda keltirilsa, har kim o'z oldidan yeydi, bironing oldidagi taomga qo'l uzatmaydi. Chunki bironing oldidagi taomga qo'l uzatish g'irt beodoblikdir.

«Ijtimoiy odoblar» kitobi asosida tayyorlandi